

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima’i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Türkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiq Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Qur'onov (Uzbekistan), Gulnoz Khalieva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

1.	<i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i> IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>)	15
 I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYYAT VA TIPOLOGIYA 		
2.	<i>Узоқ ЖЎРАҚУЛОВ.</i> МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ	20
3.	<i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i> “ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ	48
4.	<i>Сувон МЕЛИ.</i> “ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И	57
5.	<i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i> THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVA'I'S PERSIAN RUBAIYAT	68
6.	<i>Münevvər TEKCAN.</i> ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE	79
7.	<i>Сергей НИКАНОРОВ.</i> К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ	90
8.	<i>Мақсуд АСАДОВ.</i> НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ	99
9.	<i>Шоира АҲМЕДОВА.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА	107
10.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i> ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА	116

65. *Maftuna NORQULOVA.*
**"HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON
 KONSEPSIYASI** 552
66. *Dilnavoz BOYZOQOVA.*
"YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI 560
67. *Махфузахон ХОМИДОВА.*
"БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ" ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК 568

III SHO'BA NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA MILLIYAT MASALALARI

68. *Nafas SHODMONOV.*
**"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI
 SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR** 578
69. *DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.*
**OSMANLI DEVLETI'NIN MANEVI VE HAKIKI MÜESSISI
 MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN-İ RÛMÎ** 584
70. *G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.*
MURSHID VA MURID MUNOSABATI 592
71. *Нусратулло ЖУМАХЎЖА.*
**ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ"
 АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР** 602
72. نویسنده: پروفسور دکتر فضل الرحمن فقیہی ہروی
 نقش امیر علی شیر نوابی در تمدن آفرینی دورہ تیموریان ہرات 607
73. *Darmonoy O'RAYEVA.*
**RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO
 TA'RIFI** 619
74. *Ulkar BAKHSHIYEVA.*
**THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE
 MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM
 "ISKANDARNAME" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS
 RELATED TO KHIDR)** 624
75. بشیر احمد قرداش
ہصالخ 634
76. *Odiljon AVAZNAZAROV.*
NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI 642

Darmonoy O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(BuxDU, O'zbekiston)

RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rumi hamda hozirgi o'zbek shoirlari ijodida dunyo ta'rifida ishlatilgan so'z va birikmalar, sifatlashlar, metaforalar, o'xshatishlar xususida fikr yuritilgan. Ularning badiiy asar mazmunini axloqiy o'gitlar bilan boyitishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: dunyo, she'riyat, shoir, Rumi, ta'rif.

Abstract: The article examines the words and phrases, adjectives, metaphors and comparisons used to describe the world in the works of Rumi and modern Uzbek poets. Their role and significance in enriching the content of a work of art with moral teaching is revealed.

Keywords: world, poetry, poet, Rumi, definition.

Qadimdan odamlar dunyo mohiyatini ilg'ashga va uni ta'rif-tavsiflashga harakat qilgan. Uni ko'pincha ko'chma ma'nolarda talqin etishgan. Bu tajriba qadimgi turkiy adabiyot na'munalaridanoq ko'zga tashlanadi. Dastavval bunday ta'rif-tavsiflar Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarining "Annay'u solisu fi taqallibid dunyo va tag'ayyiri ahvoliho", ya'ni dunyoning o'zgarib turishi haqidagi qismida uchraydi. Unda shoir dunyoni goh rabot (karvonsaroy)ga goh avrovchi ilonga, ko'rkam toshga o'xshatgani kuzatiladi. Jumladan, shoir "Bu ochun rabot ul tushub ko'chkilik" – "Bu dunyo qo'nib yana ketadigan rabotdir", "Yilontek bu ochun yilon o'g'log'u" – "Bu dunyo avraydigan ilon kabidir", "Bu ochun ko'r erga ko'rumluk toshi" singari ta'riflarni keltirib o'tgan. Xuddi u kabi Rumi ham dunyoni turlicha tavsiflaganiga guvoh bo'lish mumkin. U dunyoni o'yinchoqqa o'xshatadi. "Dunyo – olimning qiymatsiz o'yinchog'i, ahmoqning esa qiymatli arg'imchog'i", – deydi shoir bu borada.

Dunyoni o'yinchoqqa o'xshatish hozirgi o'zbek shoirlari ijodida ham kuzatiladi.

*O'yinchoqqa o'chlik go'dak odati,
Bir umr tark etmas bu zo'r ishtiyoq.*

*Dunyoning jamiki zebu ziynati
Aslida kattalar uchun "o'yinchoq".
Bilmaski, bu "qari go'dak" ushbu choq
Dunyoning qo'lida o'zi "o'yinchoq".*

Darhaqiqat, o'yinchoqlar o'ynash bolalarga xos odat. Shoir demoqchiki, bu tabiiy-ruhiy jarayon uning ong ostida saqlanib qoladi. Inson ulg'ayganda ham dunyo voqea-hodisalarini goh to'g'ri, goh ermak bilan qabul qiladi. Ammo uni "o'yinchoq" deb bilganlar o'z-o'zini aldab yashaydi. Demak, odam o'zining nega dunyoga kelganini anglashi shart. Toki, hech kim dunyoning qo'lida "o'yinchoq" bo'lmasligi, umri o'tib borayotganini his etmog'i lozim.

Rumiy hikmatlaridan birida "dunyo – tuzoq" deb ko'rsatiladi: "Dunyo tuzoqdir, doni hoyu havasdir". Bundan tashqari, mutaffakkir shoir Alisher Navoiy "o'n sakkiz ming olam" haqida gapirgani kabi Rumiy ham har bir jondorning o'z olami, o'z dunyosi borligini ta'kilaydi. Shunga ko'ra, u o'z hikmatlarining birida "Ikkovi uchun ham osmon bitta, ammo zog'ning dunyosi boshqa, lochinniki boshqa" deya ta'kidlab o'tgan.

Hayot qonuni shundayki, hech kim bu dunyoda abadiy emas, balki o'tkinchidir. Shuni inobatga olish lozimligini eslatish maqsadida Rumiy insonlarga qarata "Unutma, inson dunyolarga hokim bo'lar, lekin har doim kichkinagina qalbga asirdir" deb aytadi va o'zidan kelib chiqib, "Butun dunyoni qidirib, go'zal xulqdan ko'ra yaxshiroq layoqatni topmadim", – deydi.

Folklordan boshlab dunyo ikkiga, u dunyo (boqiy dunyo, ruhlar olami) hamda bu dunyo (foniy dunyo, real olam)ga bo'lingan holatda tasavvur qilinadi. Bu haqda bitilgan she'riy satrlar ham mavjud. Ulardan biri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub:

*Bu dunyo, u dunyo –
Ikki ayri bog',
Kelib ketgusimiz
Aylab sayribog'. [2. 63]*

Ko'rinyaptiki, keltirilgan satrlarda u va bu dunyo ikkita bog'ga o'xshatilmoqda. Inson hayoti esa shu ikkala bog' orasida kechgan sayrdek tavsiflanmoqda. Bu dunyolar ayri bo'lsa-da, bir-birining mantiqiy davomi hisoblanadi. Shuning uchun buni ifodalash uchun "tutash olamlar" birikmasi qo'llanadi. Adabiyotda "tutash

olamlar” degan tushuncha ostida bu yorug’ dunyo va abadiyat dunyosi anglatiladi. Ularni shoir ikkita ayrilgan bog’ga qiyos etar ekan, insonning bu yerga sayri vaqt bilan bog’liq bo’lishini e’tiborga olib, “inson bu dunyoda mehmon” ifodasini qo’llaydi. Bu dunyodagi inson hayotini sayribog’ deb ataydi. Yana bir to’rtligida shoir dunyoni daryoga mengzaydi va undan kema yasab o’tmasa, cho’kish ehtimolidan ogohlantiradi:

Dunyo bir daryodir, yaxshiliklardan

Kema yasab, undan suzib o’tgaysen. [2. 238]

Rumiy bu dunyoni yolg’onlar urchigan dunyo deb atab, uni tozalashga undaydi. Bundan anglashiladiki, yolg’on dunyoga zid bo’lgan u dunyo – chin dunyo ham mavjud. yoki Rumiy o’z ruboiylaridan birida dunyoni jonlantirgan holda “Qil yaxshilik – yaxshilikni bilgay dunyo” degan da’vat bilan boshlagan. Yana bir ruboysida esa shoir xo’baxloq yorni ko’rgan oshiq bu dunyoga taloq qo’yajagini ta’kidlaydi:

Har kim seni ko’rsa agar, ey xo’baxloq

Shu lahzada qilgay u bu dunyoni taloq.

Oftob kabi chehrang qoshida dunyoda

Na oyda tarovat, na Zuhaldir porloq. [5]

Shoir o’z ruboiylarida uzun umr ko’rgan insonni “dunyosi uzun” deb murojaat qiladi. Ularda “dunyo ishi”, “dunyo tomi”, “dunyo domi” kabi birikmalarini qo’llaydi.

Aksariyat shoirlar bu sinovli dunyoda adashmaslik kerakligini uqtiradi. Bunda murosa qilib yashash ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar:

“Murosayi dunyo” degan gap – haq gap,

O’zgartirib bo’lmas obi havoni.

Nima qilib bildi maymundek sakrab,

Iskandar egallab yarim dunyoni?!

Sirojiddin Sayyid she’riyatida dunyoga nisbatan jodugar sifatlashi ham qo’llanilgan. Shoir yozadi: “Tishin qayrar jodugar dunyo”. [3.36]. Yana bir o’rinda Sirojiddin Sayyid “Bu dunyo aslida alvon rangli gul” desa, boshqa bir she’rida u dunyoni oq bo’yiniga tilla zanjirlarni taqib olgan tannozga o’xshatadi:

Oq bo’yinli tannoz dunyo,

O’ynar tillo zanjirlari. [2. 54]

Sirojiddin Sayyid dunyoni yaltiroq oltinga o'xshatgani ham ko'zga tashlanadi:

*Ushbu dunyo yaltiroq oltin erur,
Son-sanoqsiz eri bor xotin erur.
Qanchalar erni qaro yer qildi u,
Seni ham bir kun borib doding berur. [3. 71]*

Ushbu bandning ikkinchi misrasida dunyo son-sanoqsiz eri bor xotinga ham qiyoslanayotirki, bu bilan uning "bevafo dunyo" sifati ochiladi.

Rauf Parfi ham dunyo kabi umrni yombi, ya'ni quyma oltinga tenglashtirgani va bu bilan umrni behuda, mayda-chuydalarga o'ralashib o'tkazmaklik kerakligidan ogohlantirishga uringani anglashiladi:

*Umr – yombi oltin, bug'doy doniday
Maydalama uni tegirmonlarda.*

Rauf Parfi dunyoni "o'qilmagan kitob" deb ham tavsiflaydi va uni ohang varaqlashini ta'kidlaydi:

*Ohang varaqlaydi dunyoni,
Dunyo – o'qilmagan bir kitob. [1.61]*

Dunyo ta'rifi o'zbek ijodkorlarining yaratgan nasriy yoki she'riy asarlarida sarlavhaga ham ko'tarilgani kuzatiladi. Masalan, Odil Yoqubov o'zbek mutaffakkirlari Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sino haqida yozilgan tarixiy romanini "Ko'hna dunyo" nomi bilan atagan bo'lsa, Ulug'bek Hamdam she'riy saylanma to'plamini "Eski dunyo va yangi men" deb nomlagan. Uning bu to'plamidan o'rin olgan ba'zi she'rlarida "Dunyo – bu asrandi bo'ridir, jonim", "Bu dunyo hayoti tor qolip ekan", "Dunyo – jinni, bu dunyo – jinni!" "Dunyo so'rilaverib qorayib ketgan siyna", "To'xtab qolgan suv – dunyo", "Postmodern dunyo – qurama dunyo, qurama-yu ham yamoq dunyo", "Dunyo, dunyo, oq dunyo, Oydek yolg'iz, toq dunyo" kabi ta'rif-tavsiflar berilgan. [4. 416].

Har bir ijodkor aslida dunyo ulug'vorligini tan oladi, ammo bundan qat'iy nazar unda insonning qadr-qimmati g'oyasini ilgari suradi. Dunyo tushunchasi orqali insonlarga xos safsatabozlikka qarshi chiqadi. Chunki hamma dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi, holbuki, o'zini o'zgartirishi haqida o'ylashi lozim.

Xullas, qadimdan hozirgacha, folkloridan yozma adabiyotgacha

ijodkorlar dunyoni bilishga intilib yashagan. U haqda anglaganlari asosida ta'rifini keltirishga intilishgan. Natijada adabiyotda dunyoning turli sifatlashlari, metaforik nomlari paydo bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Рауф Парфи. Хотирот. Шеърлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёт, 1975. – 80 б.
2. Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. Шеърлар, таржималар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 238 б.
3. Сирожиддин Саййид. Қўксимдаги зангорларим. Шеърлар. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 36-71.
4. Улуғбек Ҳамдам. Эски дунё ва янги мен: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 416 б.
5. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1516-ruboiyot-jaloliddin-rumiy.html>